

TURK FOLKLOR QO'SHIQLARIDA METAFORIK IZOH AN'ANASI

Babajanova Marjona Zarif qizi

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti "Turkshunoslik oliy maktabi" kafedrası
lingvistika (turk-ingliz) 2-bosqich magistratura talabasi.
Tel: +998944411317. E-mail: marjonabobojonova22@gmail.com*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada turk xalq qo'shiqlarida qo'llanilgan metaforalarning semantik tasnifi amalga oshirildi. Maqolamiz til, san'at va metafora munosabatlarining turli jihatlarini bo'yicha tadqiqot olib borish istagida bo'lgan boshqa yosh olimlarga ham manfaatli bo'ladi degan umiddamiz.*

Kalit so'zlar: *Turk xalq qo'shiqlari, adabiyot, san'at, metafora, musiqa.*

Abstract: *In this article, a semantic classification of metaphors used in Turkish folk songs was carried out. We hope that our article will be of interest to other young scholars who wish to conduct research on various aspects of the relationship between language, art and metaphor.*

Key words: *Turkish folk songs, literature, art, metaphor, music.*

“Metaforani ta’riflash aslida hayollarni anglatish qadar qiyindir. Chunki metafora ham ijodkorlikning namunasi”. Metafora tushunchasi lotin tilidan kelib chiqqan. Eski yunon tilida “nargi taraf” degan ma’noni anglatuvchi meta so’zi bilan bir joydan ikkinchi joyga olib o’tish, bir hududdan ikkinchi hududga olib o’tish ma’nosini anglatuvchi phoros so’zlarining birikishidan hosil bo’lgan. Turk tilidagi sinonimlari metafora, o’xshatish, istiora, majoz va tashbexdir. Ta’rifi: “boshqasidan foydalanish orqali qarz olish” deb izohlanadi. Metaforik uslubda tushuntirish, o’rniga boshqa ifoda uslubini ishlatish orqali erishilsa; oddiy uslubda ifoda mantiqiy yoki izchil tarzda ifodalanadi. Metaforik ifoda maydoni erkin, hohish va istakga ko’ra ishlatilish tarzini taklif qiladi. Stern to’g’ridan-to’g’ri ma’no va metaforik konnotatsiyani ajratadi, lekin metafora ixtiyoriy iboralarning erkin talqini hisoblanadi. Metaforik ifoda bilan so’zma-so’z ifoda uslublari deganda nimani nazarda tutayotganimizni xalq she’riyatidan misol orqali tushuntiramiz. “Bir of çeksem karşidaki dağlar yıkılır” va “Çok üzgünüm” ya’ni “bir oh tortsam qarshidagi tog’lar yiqilar” va “judayam hafaman” har ikkala ifoda orqali bir xil tuyg’u ifodalangan. Biroq ularning birinchisida majoziy bayon uslubi qo’llanilsa, ikkinchisida asl, to’g’ridan-to’g’ri ma’nodagi bayon uslubi qo’llanilgan. Birinchi misolimiz yanada samarali hissiy intensivlikni ta’minlaydi. Keltirgan misolimizdagi xususiyatlar barcha madaniyatlarda uchraydi. Boshqacha qilib aytganda, butun insoniyat his-tuyg’ularning shiddatini ifodalash uchun metaforalardan foydalanadi. Shundan kelib chiqib, Nitsshen, “Inson metafora hosil qiluvchi hayvondir” degan fikrni ilgari suradi.

Metaforik uslubning yana bitta o’ziga xos xususiyati, mavhum ifoda shakliga ega bo’lishidir. Chunki majoziy iborani qo’llash uchun biz o’z fikrlarimizni boshqa narsalar bilan solishtirib, o’xshatib tushuntirishga harakat qilamiz. Johnson bu ta’rifga shunday izoh bergan: “Aslida metaforalar tajribalarimizga oid fikrlarimizning ochiq qilinishiga yo’naltirilgan nazariyalarni yaratadi. Barcha nazariyalar metaforalarga asoslanadi, chunki bizning mavhum tushunchalarimiz metaforik tarzda belgilanishi mumkin”. Metaforadagi bu mavhumlik xususiyati, uning ongli bir jonzot hisoblangan inson tomonidan qo’llanilishining asosiy sababidir.

Ushbu maqolamizda turk xalq musiqasining an'anasi va matnida qo'llanilgan metaforalarga alohida yondashiladi. Boshqacha qilib aytganda, maqolada metafora tahlili so'zlar bilan cheklanadi. Ohang, maqom, ritm kabi boshqa musiqiy unsurlar juda katta bo'lib, ushbu maqola doirasiga kiritilmagani va alohida mavzu yaxlitligini tashkil etganligi bois maqola turk xalq qo'shiqlari matnlarini tahlil qilish bilan chegaralangan. Biroq turk xalq musiqasi lirikasiga e'tibor qaratishdan avval, majoziy ifodaning san'atdagi o'rnini ko'rib chiqish zarur.

1. Nega san'atda metaforadan samaraliroq foydalaniladi?

Ibtidoiy xatti-harakatlar natijasida odamlar hayot haqida tajriba orttirib, hayotni anglab, idrok qila boshlaydi: "Inson tashqi olamga nisbatan munosabatda bo'ladi, uni turlicha his qiladi va boshdan kechiradi, bu dunyo haqida turlicha fikrlarga ega bo'ladi. Gap shundaki, inson kim ekanligi, nima bilan shug'ullanishi, nimalar haqida o'ylashi dunyoni idrok etishning ushbu dastlabki harakatlariga bog'liqdir". Insonning anglashga bo'lgan ushbu dastlabki urinishi, aslida, kelajakda metaforalardan foydalanish jarayonining boshlanishidir. Metaforalar she'riyat, adabiyot, estetika, matematika, mantiq va folklor kabi ko'plab sohalarda qo'llaniladi. Ayniqsa, erkin ifoda shakliga ega bo'lgan badiiy ta'riflar uchun qo'llaniladigan belgilar, ko'proq majoziy shaklda ya'ni metaforik uslubda qo'llaniladi. Metaforalar kerak bo'lsa, san'atda samaraliroq ishlatiladi. Ziss o'zining "Estetik" nomli asarida metaforadan foydalanish maqsadini quyidagicha ta'riflaydi: "Metafora – bu rassom o'z fikrlash ob'ektini hislar orqali idrok etilishi mumkin bo'lgan dunyo ob'ektlari va hodisalariga o'xshatish imkonini beradigan usul; badiiy taqqoslashdir. Birining ichki mohiyatini ikkinchisi yordamida yoritib berish maqsadida tashqi jihatdan o'xshash xususiyatiga ega bo'lgan ikki hodisaning metafora orqali yuzaga kelgan estetik tafakkur va badiiy taqqoslashdan iborat shakli" deb aytib o'tadi. Kennedy o'z tadqiqotida harakatchanlik, qat'iyatlilik, turg'unlik va shunga o'xshash ifodalar soyalar bilan mefatorialanganligini tasvirlab beradi. Xuddi shu shaklda Spitzer musiqiy elementlar: ohang, garmoniya, ritm, matn va so'zlar yordamida yaratilgan metaforik tavsifga e'tibor qaratadi. Rasmda qo'llanilgan rang va chiqizlardan tortib musiqada qo'llanilgan tovush va so'zlargacha, his-tuyg'ularga taaluqli barcha turdagi ifoda vositalari aslida majoziy ifoda natijasidir. Boshqacha qilib aytganda, badiiy mantiqiydan ajratib turadigan narsa metaforik (majoziy) yoki tom ma'nodagi ifoda uslubidir. San'atda ko'proq ishlatiladigan va afzal ko'rilgan metafora, madaniy xususiyatga ham egadir. Lakoff buni quyidagicha ifodalaydi: "Metaforik xaritalash ko'pincha o'zgaruvchan, ba'zilar universal ko'rinadi, boshqalari keng tarqalgan va ba'zilar madaniyatga xosdir". Binafsha rang ayol kimligini, qizil atirgul ishqni, g'arb madaniyatida kichik ohanglar qayg'uni, asosiy kuylar quvonchni ifodalagani kabi mintaqaviy xususiyatga ega bo'lgan barcha misollar ham badiiy ifoda uslubining, hamda metavoraviy(majoziy) uslubning madaniyatdan holi emasligining belgisidir.

2. Turk xalq qo'shiqlarida metaforaning ishlatilishi

Madaniyatning eng muhim qismlaridan bo'lgan til metaforalarni yetkazishda muhim rol o'ynaydi. Ko'pgina olimlar metafora xarakteristik jihatdan adabiyotda, badiiy tilda yozilmagan oddiy matnlarga qaraganda ijodiy, farqli, jozibador, erkin, boy, qiziqarli, murakkab va izoh talab qila olishi haqida hamfikrlar. Lakoff ham she'riyat haqida shunday fikr bildiradi: "Poetik metafora kundalik hayotimizning eng muhim kengaytmasidir, an'anaviy metaforik fikrlash tizimidir".

Til madaniyatdir, shuning uchun ham "Til qurilishi va semantik tuzilishi xalqlar madaniyati

va urf-odati, diniy e'tiqodi, yon-atrofidagi madaniyatlar bilan ta'siri va geografik joylashuvi bilan o'zaro munosabati kabi omillar ta'siri ostida qolgan". Lakoffning so'zlariga ko'ra, "Metaforalar ko'pincha o'xshashliklarga emas, balki o'z tajribamizga asoslanadi". Demak, millat yoki jamiyatning dunyoviy idroki, kechinmalari aks ettiriladigan asosiy nuqta tildir. Tilga yuklangan ma'no va metaforalar xalqning butparastlik davridagi e'tiqodlariga, tarixiy o'tmishiga va ishlab chiqarish usullariga oid muhim ma'lumotlar beradi va mavhum hisoblangan madaniyat parchalarining eng muhim qismlaridan biridir. Tildan eng samarali foydalaniladigan madaniy ifoda shakllaridan biri musiqadir. Chunki musiqa nafaqat ohanglarni, balki hissiyotli so'zlarni ham o'z ichiga olgan ta'sirchan ifoda uslubidir. Shuning uchun ham, bu hissiy ifodani qo'lga kiritish uchun nafaqat ohanglar, balki metaforalar ham muhim ahamiyatga egadir.

Anadolu dunyodagi eng qadimgi madaniy geografiyalardan biridir. Bu yer shuningdek, qishloq xo'jaligi va neolit davri boshlangan birinchi aholi punktlaridan biridir. Turk xalq musiqasi Anadolu xalqi insonining Islom va tasavvufdan tashqari Paganizm, Buddizm, butparastlik va Zardushtiylik kabi farqli madaniy ta'sirlar ostida qolganligidan dalolat beradi. Albatta, turk xalq musiqasi lirikasida Islomdan oldingi davrdagi Anadolu xalqining madaniyati va e'tiqodining barcha izlarini ko'rsatishning iloji yo'q. Ushbu maqolada xalq qo'shiqlariga oid metaforalar ular tarkibidagi ma'nolarga ko'ra umumiy tarzda tasniflanadi. Bundan tashqari ushbu tuproqlarda ishlatilgan ko'plab tillarda umumiy metaforalar mavjudligi aniq. Masalan, turna so'zi arman tilida ham qo'llaniladigan metafora bo'lib, muqaddas ma'nolarni o'z ichiga oladi.

Anadolu va Yaqin Sharqdagi deyarli barcha folklor janrlari uchun umumiy bir haqiqat bor va bu qo'shiq matnidir. Turk xalq musiqasiga hissiy teranlik beruvchi eng muhim vositalardan biri so'zdir. Xalq qo'shiqlaridagi hissiy teranlikni yuzaga keltiruvchi narsa majoziy ifoda uslubidir. Turk xalq qo'shiqlaridagi metaforik uslub an'anaviy, chuqur ildizli xalq adabiyoti motivlariga asoslanadi. Kasallik-muhabbatni, davo-suyukli yorni, tabib-bu kasallikning befoyda davosini anglatsa, tog'-ayriliq, yo'l-turmush tarzi va falsafani ifodalovchi motivlardir. Turk xalq qo'shig'idagi bu o'ziga xos metavoraviy uslub, xalq qo'shig'ini an'anaviy yoki hududiyga ajratadi. Quyida sanab o'tilgan metaforalarning barchasi dunyoviy ishqni ifodalovchi quyi versiyalaridir: Oshiq-mashuq, ovchi-o'lja, tabib-bemor kabi barcha metaforalar ana shu asosiy metaforaning davomi hisoblanadi.

Har bir musiqa janri o'zi mansub bo'lgan jamiyat madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Binobarin, patriarxallik hukm surgan davrdagi xalq qo'shiqlarida patriarxallik aks etgan va o'z metaforik ifodasini topgan. Xalq qo'shiqlari asosan erkaklar olamini aks ettirgani uchun ayollar muhabbat ob'ekti sifatida qabul qilingan va bu muhabbat ob'ektini turli mavjudotlarga qiyoslash orqali o'z ma'nosini topgan.

Jayron, kiyik, kaklik va boshqa metaforalari: Avvalo, ayolni jayron yoki bug'uga qiyoslash yuqorida keltirilgan ovchi-o'lja metaforasidan kelib chiqadi. Ovchi o'lja ortidan quvganligi sababli ovchi yigitga, ov ya'ni o'lja esa mashuqaga qiyoslangan. Ko'proq erkaklar olamini aks ettiruvchi bu xalq qo'shiqlarida sevikli yor hisoblangan jayron, kaklik va boshqa hayvonlar ov ob'ekti hisoblanadi.

Kekliğim kecliğim kınalı kecliğim

Suya mı gidersin yolunu bekliyim

Olma, gilos, bodom va boshqa metaforalar: Ayollar sevgi ob'ekti hisoblangan xalq qo'shiqlarida baxshilar ko'proq uning tashqi ko'rinishiga urg'u beradi. Yor uchun tog'lar qazilib,

qamoqxonalarda yotib chiqishga majbur qilingan oshiq yorining qoshlari, ko'zlari, nigohi, yanoqlari, lablari va sochlari metaforik uslubda tasvirlanadi. Yor qalam qoshli, bodom ko'zli, olma yanoqli, olcha labli, shirin tilli va tilla sochlidir. Xalq qo'shiqlaridagi ayollar ifodasi uchun qo'llanilgan metaforalardagi ifoda o'xshashligi xalq qo'shiqlarining keng tarqalish sohalari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Fark etmez naz etsen de çekerum her nazini

Kiraz dudaklı Ayşem yerim senin ağzini

Hanım kızlar kızlar canım kızlar kızlar

Bezenmiş düğüne gider elma yanaklı kızlar

Insonlar dastlab o'z sevgilari orqali his qilgan, lekin nomini hali bilmagan "ma'nosini boshqa narsaga solishtirish va qiyoslash orqali ochiqlash" usuli san'at tarihinin turli xil davrlarida tez-tez qo'llanilgan o'yin turi hisoblangan. Shu nuqtai nazardan olib qaralsa, metafora xalq qo'shiqlari ijodkorlari hisoblanmish baxshilarning kuchli quroli hisoblangan. Yaqin Sharq madaniyatida ohang so'zni oziqlantiradi, so'z esa madaniy merosning unutilishiga to'sqinlik qiluvchi tayanch toshdir. Shuning uchun Anadolu xalq qo'shiqlarida so'zlar musiqiy tuzilishning ajralmas qismidir. Turk xalq qo'shiqlarida metafora konkretlashtirish va shaxslashtirish yo'li bilan yaratilgan. Diniy va diniy bo'lmagan xalq qo'shiqlaridagi metafora manbalarining aksariyati tabiatga oid unsurlardan tashkil topgan. Tog', turna, bug'u, jayron, atirgul, bulbul, olcha, olma, kabi. Bundan tashqari, ko'proq mavhum vaziyatlarni metaforalashga misol keltiradigan bo'lsak; "Kasallik" muhabbatni anglatsa, "davo" suyuqli yor yoki "tabib" bu dardning "bedavo davosi", "tog'" ajralish, "yo'l" esa turmush tarzi va falsafasini bildiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Doğan, Mehmet. Büyük Türkçe sözlük. – İstanbul: Pınar Yayınları, 2005. – S.98.
2. Hühnerfeld, Paul. Heidegger Bir Filozof Bir Alman. – Ankara: Gündoğan Yayınları, 1994. – S. 43.
3. Kennedy, John M. Metaphor and Art. – UK: Cambridge University Press, 2008. – S.447-461.
4. Kofman, Sarah. Nietzsche and Metaphor. – California: Stanford University Press, 1993. – S. 67
5. Lakoff, George. Contemporary Theory of Metaphor, Metaphor and Thought. – USA: Cambridge University Press, 1998. – S. 245.
6. Mark, Johnson. Philosophy's Dept to Metaphor. – UK: Cambridge University Press, 2008. – S. 86.
7. Mustan D, Banu. Alevi Cem Ritüelinde Canlandırılan Kırklar Söylencesinin Şiir- Müzik-Dansla İlişkisi. – İstanbul: Uluslararası Sosyal Araştırma Dergisi, Vol.3, Issue 14, 2010. – S. 191-199.
8. Mustan D, Banu. Müziğin Anadolu Tasavvufundaki Aşk, Ateş ve Yanma Metaforları Bağlamındaki Algılanışı ve Performansı. – Ankara: Folklor/ Edebiyat Dergisi, vol .48. No: 12, 2006. – S. 329-340.
9. Salman, Yurdanur. Dilin Düşevreni Eğretileme. – İstanbul: Yapı Kredi Yayınları, 2003. – S. 65.

10. Uzun, Serkan, Ümit Hüsrev. Felsefe Sözlüğü. – Ankara: Bilim ve Sanat Yayınları, 2003.
– S. 96.